



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2024

Litsenziya raqami: №095310





TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Zaynitdinova Masuda Abdukadirovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor v.b.	A'zo

EKSPERT KENGASHI:

Qodirov Sirojiddin Rahmonqulovich	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Boshqarma boshlig'i o'rinbosari	A'zo
-----------------------------------	---	------

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida talabalarining o'zlashtirish faoliyatini diagnostika qilish usullari	5
Xudaynazarova Kamola Shavkat qizi	
O'qitish sifatini oshirishda xorijiy tajriba asosida ta'lim vositalarini qo'llash.....	10
Nasrullayeva Gulzira	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning texnologik tuzilmasi	14
Ruzimova Intizor Xujamuratovna	
Проблема взаимоотношений в приёмных семьях	18
Джанпеисова Гаухар Эркиновна, Рахимова Самира Абдухалимовна	
Роль национальных ценностей в нравственном воспитании детей дошкольного возраста	24
Ералиева Замира Расулжоновна, Джанпеисова Гавхар Эркиновна	
Some Possibilities for Using Innovative Educational Technologies in Teaching Preschoolers	31
Gaukhar Djanpeisova Erkinovna, Raxmonova Sabrina	
Современные методы и подходы в подготовке студентов факультета дошкольного образования по математическому развитию детей	36
Пак С. В.	
Strategies and Innovative Methods in Modern School Education	41
Gaukhar Djanpeisova Erkinovna, Komilova Shakhribonu Khurshidovna, Raxmonova Roza Panteleevna	
Ijtimoiy munosabatlarda konfliktologik vaziyatlar va ularning yechimidagi ba'zi masalalar	46
Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, Xamdamova Hayotxon	
6-7 yoshli bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosligi.....	51
Gaukhar Djanpeisova Erkinovna, Sharapova Soxiba Toshbolta qizi	
Tarbiyachi pedagoglarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limining muammolari va yechimlari	58
Yo'ldashev Axrorjon	
Tarbiyachining nutqi bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun namuna	62
D. R. Babayeva, G. Q. Turinbetova	
Maktabgacha ta'lim tizimi pedagog kadrlarini tayyorlash jarayonini rivojlantirish strategiyasi.....	66
Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, Xasanova Moxim, Razzaqova Sanatxon	
PISA xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning savodxonligini takomillashtirish.....	69
Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, Sotvoldiyeva Muslima Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini sahnalashtirish o'yinlariga jalb qilish va boshqarish orqali ta'lim-tarbiya berish.....	73
Salimova Dilmira Farxodovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda konstruktiv modellashtirishning o'rni.....	76
Maxmudova Oybarchin Axatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari	84
T. I. Urmonova	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI HAMDA MANTIQUIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

T. I. Urmonova

Toshkent pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim tizimida keng tarqalgan texnologiyalardan biri Blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida bayon etiladi. Shuningdek Blum taksonomiyasi asosida ta'limiy faoliyat uchun o'yinlardan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, ijodiy qobiliyat, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, taksonomiya darajalari, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez, baholash, tizimli savollar, amaliy topshiriqlar.

Abstract: This article describes the advantages of using Bloom's taxonomy, one of the most common technologies in the modern education system, in the development of creative abilities and logical thinking skills of preschool children. Also, examples of games for educational activities based on Bloom's taxonomy are presented.

Key words: children of preschool age, creative ability, development of logical thinking skills, taxonomy levels, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation, systematic questions, practical tasks.

Аннотация: В данной статье описаны преимущества использования таксономии Блума, одной из наиболее распространенных технологий в современной системе образования, в развитии творческих способностей и навыков логического мышления у детей дошкольного возраста. Также представлены примеры игр для образовательной деятельности на основе таксономии Блума.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, творческие способности, развитие навыков логического мышления, уровни таксономии, знания, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, систематические вопросы, практические задания.

So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning oldiga ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy, estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga sifatli tayyorlash ishlarini tubdan takomillashtirish maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29 dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707, 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261, 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5198-sonli Farmon va Qarorlari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda juda ko'p va xilma-xil metodik vosita hamda texnologiyalardan foydalaniladi. Shunday texnologiyalardan biri Blum taksonomiyasi hisoblanadi. Amerikalik mashhur psixolog B.Blum tomonidan asos



solingan, savol va topshiriqlar, tizimli - bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari zamonaviy ta'lim tizimida juda keng tarqalgan. O'quv maqsadlari ta'lim oluvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan ob'ektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashtirib borishini, jarayonni ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirish yoki tizimlashtirishdir. Blum taksonomiyasi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez va baholash darajalaridan iborat bo'lib, quyidagicha izohlanadi:

Blum taksonomiyasining bilish darajasi dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda bola atamalar, aniq qoidalar, tushunchalar dalillar, mezonlar va olingan bilimlarni eslaydi, biladi, takrorlaydi, voqea hodisalarni bayon qilish bilan bir qatorda turli-tuman ijodiy qobiliyatlari o'sadi.

Tushunish darajasida bola oldin olingan bilimlar, tushunchalar, dalillarni qayta tuza oladi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tavsiflay oladi.

Qo'llash-darajasida esa bola olingan bilimlarni ma'lum bir yangi vaziyatlarda qo'llaydi. Ikkinchi, yangi ko'rinishini ijodiy fikrlash yo'li orqali yaratadi.

Tahlil qilish(analiz) darajasida yaxlit bilimlarning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash orqali faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Sintez darajasida tarbiyalanuvchi olgan bilimlarini ijodiy ish(sahnalashtirish, yasash, bajarib ko'rsatish, ertakni boshqa talqinda davom ettirish...) sifatida bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir necha sohada bilimlardan foydalanadi, ayrim bilimlar asosida yaxlitning ma'lum obrazini, ko'rinishini yaratadi.

Baholash darajasida mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha darajalar bo'yicha o'quv natijalariga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholaydi va xulosalaydi.

Blum taksonomiyasining o'quv topshirig'ini bajarish orqali tarbiyalanuvchilarda mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va atroficha mushohada yuritish kabi malaka, ko'nikmalar shakllanadi, berilgan topshiriqqa nisbatan ijodiy yondashish orqali esa yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash o'sadi.

O'quv topshirig'ining Blum taksonomiyasi darajalari bilan mos kelishi bolalar ongidagi xulosalar bilan real voqelikni mos keltirish malakalarini shakllantiradi.

Blum taksonomiyasining birinchi uchta darajasi: bilish, tushunish va qo'llash –faoliyatni tekshiruvchi-repiti-tsiya (Reproduktiv) malakalarni takrorlash yoki, yangi olingan axborotni idrok etish, ma'nosini xatosiz qabul qilishni ta'minlaydi.

Tahlil qilish va sintez qilish darajasi esa kognitiv malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan, aqliy qobiliyatni talab qiluvchi aniq yoki yashirin ma'lumotni qayta ishlashga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Bunday ko'nikmalarning asosi bilish bo'lib, ta'limiy sohani chuqurlashtirish, izchil bilim olishni rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Baholash darajasining maqsadi axoqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bo'lib, bu ichki va tashqi xulq shakli hisoblanadi. Uning ta'sirida shaxs o'z-o'zini angashi, tevarak atrofdagi voqelikni qabul qilishi, turli xil hayotiy hodisalarni anglash, o'zining usul va harakatlari orqali uni ifodalashni o'rgatishdir. Bunday ko'nikmalari asosi real voqelikda uchraydigan hayotiy muammo-masalalarni tuhsunish, anglash va mustaqil yechim topa olish hisoblanadi.

Quyida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar Blum taksonomiyasi asosida ta'limiy faoliyatlarda "Blum kubiklari" va "Blum moychechagi" o'yinidan namunalar keltiriladi.

1. "Blum kubiklari" o'yini


Kubiklarning ustiga nima uchun? Isbotla, nomla, davom ettir, bo'lish... kabi savol va topshiriqlar yoziladi.

Pedagog yoki tarbiyalanuvchi kubikni stol ustiga tashlaydi. Kubik qaysi tomoni bilan tushsa, bolalar shu tomonga yozilgan topshiriq yoki savolni bajarishi kerak bo'ladi. Masalan: "Nomla" so'zi bilan boshlanadigan topshiriqda bola sodda bilimlarini anglashga aniqlik kiritadi (bilish darajasi).

"Nima uchun?" savoli esa bilish jarayonini boshlanishiga mos keladi. Tarbiyalanuvchi bu holatda predmet yoki hodisaning sababini-bog'liqligini aniqlashi, jarayonni ta'riflashi kerak bo'ladi (tushunish darajasi).


"Isbotla" topshirig'ida tarbiyalanuvchi tushunchalar va prinsiplar, aniq hayotiy vaziyatlarga taaluqli bilimlar, usul yoki amaliyotda qo'llagan holda namoyish etadi (qo'llash darajasi).

"Davom ettir", "O'ylab top", "Bo'lishish" topshiriqlari esa bolaning fikrlash jarayonini faollashtirishga qaratilgan. U dalil va oqibatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlaydi, tahlil qiladi, olayotgan bilimlarini baholaydi, turli sohalarda bilimlarini qo'llaydi, vaziyatlar bo'yicha xulosalar chiqarishga diqqatini qaratadi(Tahlil qilish, sintez va baholash darajasi).



2. “Blum” moychechagi o'yini

“Blum moychechagi” oltita gulbargdan iborat bo'lib, har biriga savol va topshiriqlar joylashtirilgan.



- 1. Oddiy savollar.** Bu savollar ma'lumotni eslash va aniqlash, biror bir ma'lumotni aytishga qaratilgan. “Nima?”, “Qachon?”, “Qanday?” savollari ko'pincha an'anaviy nazorat shaklida qo'llaniladi.
- 2. Aniqlik kirituvchi savollar.** Odatda “Sen shunday demoqchi edingmi?”, “Agar men to'g'ri tushungan bo'lsam, sen.....demoqchi edingmi?”, “Men adashishim mumkin, lekin sizlar...shunday dedingizmi?” kabi so'zlardan boshlanadi. Bu savollarning maqsadi, bolaga hozir bergan javobini qayta aloqaga qaytish imkonini beradi. Gohida bu savollardan axborot olish, ma'lumotni to'ldirish maqsadi nazarda tutiladi.
- 3. Tushuntiruvchi (Isbotlash) savollari** ko'pincha “Nima uchun?” so'zidan boshlanadi. Bu savollar odatda salbiy yoki oqlashga qaratilgan bo'ladi. Boshqa holatlarda uning sabab va oqibatlarini bog'lanishlarini aniqlash uchun beriladi. Masalan: “Nima uchun sehrgar kampir Qimmatga (Zumradga) shunday sovg'alar berdi”. Agar savolning javobi aniq bo'lsa, u oddiyga “aylantiriladi”. (Zumrad (Qimmat) qaysi harakatlari uchun sehrgar kampirdan shunday sovg'alar oldi). Albatta bunday savol tipi javobda mustaqillik elementi bo'lganida “qayta ishlanadi”.
- 4. Ijodiy savollar.** Agar savollarda “Agarda” shartli, taxminiy, prognozli qismlari bo'lsa, ular ijodiy savollar bo'ladi: “Nima bo'ladi, agarda....?”, “Nima deb o'yllaysiz qanday rivojlanadi....?”. (Masalan: Nima bo'lardi agarda o'rmonda Zumradga sehrgar kampir uchramaganda).
- 5. Baholovchi savollar.** Ushbu savollar u yoki bu hodisani, faktni, voqeani baholash mezonlari sifatida beriladi. “Nima uchun nimadir yaxshi, nimadir yomon?”, “Bir mashg'ulot boshqasidan nimasi bilan farq qiladi?” ko'rinishida qo'llash mumkin.
- 6. Amaliy savollar.** Agar savollar amaliy va nazariy jarayonlarni bo'g'lashga xizmat qilsa, ularni amaliy savollar deb atash mumkin. “Qayerda qo'llaniladi?”, “Odatda, hayotda qayerlarda kuzatamiz?”, “Siz qanday yo'l tutar edingiz?” kabi ko'rinishga ega bo'ladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, barcha yoshdagi bolalar savollarni tushunadilar, o'z hayotiy misollarini keltira oladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Blum taksonomiyasini qo'llash bolalarning ta'limiy faoliyatlarini mazmunan boyitadi, ish shakllarini xilma-hil bo'lishini ta'minlaydi. Blum taksonomiyasini kichik, o'rta va katta maktabgacha yo'shdagi bolalar bilan o'tkazish mumkin. Eng muhimi, bolalarning yosh pedagogik, psixologik xususiyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olib savol va topshiriqlarni moslashtirish kerak.

Blum taksonomiyasi topshiriqlaridan foydalanilganida quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- 3-4 yoshli bolalar bilan bilish, tushunish, qo'llashni; (1, 2 daraja);
- 4-5 yoshli bolalar bilan bilish, tushunish, qo'llash, analiz va sintezni; (1, 2, 3, 4, 5 daraja);
- 6-7 yoshli bolalar bilan oltita darajaning barchasini qo'llash mumkin.

Ushbu ko'rsatmadan amaliy tavsiya sifatida foydalanish mumkin. Quyida Blum taksonomiyasi asosida o'zbek xalq ertaklaridan “Ur to'qmoq”ertagiga savollarni qo'llashni ko'rib chiqamiz.

Ertak nomi: “Ur to'qmoq”

Daraja	Toshiriq va savollar
Eslash	1.Ertak qanday nomlanadi? 2.Ertak qahramonlarini sanang. 3.Chol laylaknikiga birinchi marta borgan vaqtdagi laylakning gaplarini eslang. 4.Ertakka mos rasmlarni tanlang. 5.Laylak cholga qanday sovg'alar berganini tanlang. 6.Paypaslab laylakning sovg'alarini toping(“Sehrii haltacha” o'yini orqali)



Tushunish	1.Nima uchun chol birinchi marta uyiga qaynar humcha olib kelganida hech narsa chiqmadi? 2. Nima uchun chol birinchi marta uyiga ochil dasturxon olib kelganida hech qanday noz-ne`matlar paydo bo`lmadi? 3.Nima uchun boy cholning sovg`alarini olib qo`ydi? 4.Boyning xarakterini ifodalang. 5."Nima eksang shuni o`rsan"maqolini siz qanday tushunasiz? 6.Boy va laylakning xarakterini solishtiring.
Qo'llash	1.Chol laylakni qanday mehmon qilganini ko`rsatib bering. 2. Chol birinchi marta uyiga ochil dasturxon olib kelganida hech qanday noz-nematlar paydo bo`lmaganidagi holatini ko`rsatib bering. 4."Ur to`qmoq"ishga tushganidagi boyning holatini izohlang.
Tahlil qilish	1.Laylak haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? 2.Chol va boyni,laylakni solishtiring. 3.Ertakni qismarga bo`ling (boshi, o`rtasi, oxiri). 4.Nima deb o`ylaysiz o`rtog`ingiz guruhga o`yinchoq olib kelsa, uni kimdir olib qaytarib bermasa nima bo`ladi?
Sintez	1.Ertakni guruh bolalari o`rtasida ro`llarga taqsimlanganida ,kimga qanday ro`l tegishi mumkin? 2.Agarda boy cholning sovg`asini olib qo`ymaganida ertak qanday davom etishi mumkin edi? 3.Bu ertakka qanday o`yin o`ylab topish mumkin? 4. Agarda laylakka birinchi bo`lib boy uchraganida ertak qanday davom etishi mumkin edi?
Baholash	1.Ertak qahramonlarini xulqini baholang. 2.Ertakdan qanday xulosa chiqarish mumkin? 3.Bu ertakni bolalarga tavsiya etish mumkinmi? 4.Ertakning bosh g`oyasini aytib bering?

Xulosa qilib shuni aytish joizki ,amaliyotga joriy etilayotgan Blum taksonomiyasi texnologiyasi bolalarda mantiqiy fikrlash, hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarga mustaqil ijodiy yechim topa olish, qaror qabul qilish va vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan rejalar tuzishga o`rgatadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (Ta'lim muassasalari tarbiya-chi-o`qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).2010 yil.
2. Бесчастнова. И.А.Таксономия Блума в ДОУ(из опыта работы ДОУ г. Казани) Казань 2019 г. 1-5 ст.
3. Teshabayeva, Z. S.(2021). Maktabgacha talim tashkilotida sahnalashtirish oyin faoliyati shakllari, turlari, ularni tashkil etish usullari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 268-271.
4. Qo`ysinova. G.N. O`quvchilar mustaqil ta'limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. „Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023-yil. 22.11.1-2-bet.
5. Ibraimov X.I Gaynazarova, G.A (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.
6. O`R.SaidovO`zbek tili ta'limi jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish Zamonaviy ta'lim. 2017-yil 9-son.1-3 bet.